

**DUNYO BO'YLAB TARQALGAN O'RGIMCHAK XILLARI VA ULARNING TUZILISHI,
KO'PAYISHI VA OZIQLANISHI. O'RGIMCHAKLARNING INSON HAYOTIDAGI
AHAMIYATI. ZAHARLI VA ZAHARLI BO'LMAGAN O'RGIMCHAK XILLARI**

Abdumuxtorov Davronbek Latifjon o'g'li

Andijon davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya ta'lim yo'nalishi talabasi

E-mail: abdumuxtorovdavronbek66gmail.com Tel: +998911694707

Abduvaliyeva Sojida Ibrohimjon qizi

Andijon davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya ta'lim yo'nalishi talabasi

E-mail: sojidaabduvaliyeva7@gmail.com Tel: +998975710015

Annotatsiya: Uzunligi 0,1 mm dan 17 sm gacha. Og'iz organi so'ruvchi. Ko'zlari oddiy. Boshko'ragi ingichka poyacha orqali qorin bilan tutashgan yoki unga qo'shilib ketgan. Qorinoyoqlari reduksiyaga uchragan yoki shaklan o'zgarib taroqsimon o'simta, varaqsimon o'pka yoki to'r bezlarini hosil qiladi. O'pka yoki traxeyalar orqali nafas oladi. Ayirish organlari — malpigi naychalari va koksali bezlar. Ko'pchilik o'rgimchaksomonlarda zahar bezlari bor.

Kalit so'zlar: O'rgimchaklar, qoraqurt, Sidney o'rgimchagi, bo'ri o'rgimchak, qizil o'rgimchak.

Аннотация: Длина от 0,1 мм до 17 см. Ротовой аппарат сосущий. Глаза у него простые. Череп соединен или сращен с брюшной полостью посредством тонкого стебелька. Брюхоногие моллюски редуцируются или видоизменяются, образуя гребневидные выросты, листовидные легкие или ретикулярные железы. Дышит через легкие или трахею. Органами выделения являются мальпигиевы сосуды и коксальные железы. У большинства пауков есть ядовитые железы.

Ключевые слова: Пауки, черный волк, сиднейский воронковый паук, паук-волк, красный паук.

Abstract: Length from 0.1 mm to 17 cm. Mouthparts are sucking. Eyes are simple. The cephalothorax is connected to the abdomen by a thin stalk or is fused to it. The gastropods are reduced or have changed shape to form a comb-shaped growth, leaf-shaped lungs or reticular glands. Breathes through lungs or tracheae. Excretory organs are Malpighian tubules and coxal glands. Most arachnids have venom glands.

Keywords: Spiders, black wolf, Sydney funnel-web spider, wolf spider, red spider.

Adabiyotlar tahlili

O'rgimchaklarni o'rganish bo'yicha dunyoda ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda va xalqaro o'rgimchaklar katalogidagi turlar soni yildan yilga ortib bormoqda. Bugungi kunda xalqaro o'rgimchaklar katalogi 134 oila 4386 avlodga mansub 52179 ta turni o'z ichiga oladi. Ushbu 134 oila ichida ayrimlari o'zining xilmaxilligi va keng tarqalganligi bilan ajralib turadi. Bugungi kunda dunyoda Thomisidae oilasining 171 avlodga mansub 2178 ta turi tarqalgan. Bu oila vakillarining oldingi ikki oyoqlari

qolgan oyoqlarga qaraganda uzunroq va mustahkamligi qolaversa odatda yon tomonga yoki orqaga harakat qilishlari bilan boshqa oila vakillarida ajralib turadi va shu sababli ularni krabsimon o'rgimchaklar ham deb ataydilar [6. 181-183-b].

Avstralia. Sydney qora to'siq o'rgimchagi (*atrax robustus*) ushbu hududdagi zaharli o'rgimchaklardan biri. ushbu o'rgimchakning chaqishi oqibatida koplab insonlar opkaning massiv shishishi oqibatida vafot etadilar. tanasining kattaligi 1.5 smdan 2.5 smgacha oyoqlari tanasidan uzunroq butun uzunligi b'azi birlarida 10smgacha yetishi mumkin [1.73-77-b]

Brazilia. Bo'ri o'rgimchak(*lycosa*)-orgimchaklar ichida yirtqichligi bilan record darajada turadi. u oljasini tutish uchun ozi uchun yashirin chuquchalar kovlaydi va osha yerda oljasini kutib yotadi uzunligi 2 smdan 4 smgacha boradi [3.410-420-b].

Hindiston. Hind tarantulasi (*poecilotheria*) ushbu o'rgimchak kopchilik hindistonlik aholi ortasida uy hayvoni sifatida boqiladi va ushbu orgimchaklar bor ekanligi yoki aniqlanganligi haqida okrugga xabar berilishi shart emas. uzunligi tahminan 6-8sm, kok sariq oq jigarrang ranglarda bargsimon naqshga ega ushbu orimchaklar 8-12 yilgacha umr korishlari mumkin [7.45-56-b].

Rossiya. Rossiyada tarqalgan *Pardosa* turkumiga kiruvchi o'rgimchaklar haqida ma'lumot: *Pardosa* — juda keng tarqalgan va turli hududlarda uchraydigan mayda bo'r o'rgimchaklar turkumi. Ular odatda yer yuzasida yoki o'simliklar, toshlar ostida yashaydi. Asosiy xususiyatlari. O'lchami: 3–10 mm atrofida, juda kichik va tez harakatlanadi. Rangi: Odatda kulrang, jigarrang, qora yoki sarg'ish ranglarda bo'lib, chiziqlar yoki dog'lar bilan bezatilgan. Tashqi ko'rinishi: Oyoqlari uzun va ingichka, harakatda juda chaqqon. Yashash joylari. Rossiyaning turli hududlarida keng tarqalgan. Qishloq joylari, o'rmonlar, o'tloqlar, shuningdek, shahar atroflarida ham uchraydi. Ular odatda yer yuzasida yoki o'simliklar, toshlar ostida yashaydi [8.305-322-b].

O'rgimchaklar tibbiyot sohasida juda muhim va istiqbolli tadqiqot obyekti hisoblanadi. Ularning zaharlari va biologik xususiyatlari ko'plab dori vositalari va terapevtik usullarni yaratishda qo'llanilmoqda. Quyida o'rgimchaklarning tibbiyotdagi asosiy ro'llari keltirilgan: Zaharlaridan dori vositalari ishlab chiqish O'rgimchak zaharlari murakkab biologik moddalardan tashkil topgan bo'lib, ular asosan oqsillar va peptidlardan iborat. Ushbu moddalarning ayrimlari og'riqni kamaytiruvchi, yallig'lanishga qarshi, yurak faoliyatini tartibga soluvchi va boshqa terapevtik xususiyatlarga ega. O'rgimchaklar ekotizimning muhim va ajralmas qismi hisoblanadi. Ularning tabiiy muhitdagi roli ko'p qirrali bo'lib, quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi: Zararkunandalar populyatsiyasini nazorat qilish O'rgimchaklar ko'plab hasharotlar va boshqa mayda umurtqasiz hayvonlarni ovlaydi. Ular bog'lar, o'rmonlar, qishloq xo'jaligi maydonlari va boshqa tabiiy muhitlarda zararkunandalar sonini kamaytirishga yordam beradi. Bu o'simliklarning sog'lom o'sishini ta'minlab, ekotizimning barqarorligini saqlashga xizmat qiladi. Oziq zanjirining muhim qismi O'rgimchaklar o'z navbatida boshqa yirtqichlar, masalan, qushlar, amfibiyalar va kichik sut emizuvchilar

uchun oziq manbai hisoblanadi. Shu bilan ular oziq zanjirining muvozanatida muhim rol o'ynaydi [2. 23-27-b]

Ko'plab o'rgimchak turlarining tishlari va zaharli inson terisini teshishga qodir emas. Zahari ham insonlarga kuchli darajada ta'sir qilmaydi, ta'sir qilsa ham o'griq u darajada kuchli bo'lmaydi [9. 78-90-b]. Ammo yana bir qator o'rgimchaklarning shunday turlari borki ular zaharli hisoblanadi. Bunday o'rgimchak kimnidir chaqib olsa u shu zahoti davolnadi. Shuningdek o'rgimchak aniqlangan hudud endemic hudud deyiladi. o'rgimchak chaqqanida payd bo'ladigan sindromlar ham mavjud. Loksoselizm, latrotektizm va huni o'rgimchak sindromi [5. 54-b] Dastlab o'rgimchakdan zaharlash holati Amerika Qo'shma Shtatlarida kuzatilgan. U yerdagi Los-Anjelesdagi umumiy shifoxonada 15ta kasallik holati davolangan va ularda klinik sindrom holati kuzatilgan [4. 375-388-b].

Xulosa.

O'rgimchaklar (Araneae) oilasi tabiatda keng tarqalgan va ekologik jihatdan muhim hayvonlar guruhidir. O'rgimchaklar dunyoning har xil burchaklarida, jumladan, o'rmonlar, cho'llar, tog'lar, shaharlar va hatto suv ostida ham yashaydi.

Ular turli xil yashash muhitlariga moslashgan va ko'plab turlari mavjud.

O'rgimchaklar dunyo bo'ylab 40 000 ga yaqin turi bor va o'rgimchaklarni istalgan davlat o'rmonlaridan tortib uy burchaklarigacha topish mumkin.

O'rgimchaklarning zaharli va zaharsiz turlari mavjud bo'lib zaharli o'rgimchaklar soni u darajada kop emas. Ko'plab zaharli o'rgimchak zaharlari odamga u darajada qattiq ziyon keltirmasa ba'zilar o'limga ham olib kelishi mumkin.

O'rgimchaklardanya'ni ularning zaharlaridan tibbiyot sohasoda turli dori vositalarini tayorlashda foydalaniladi, shuningdek o'rgimchaklar ekosistema barqarorligida muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A verified spider bite and review of the literature confirm Indian ornamental tree spiders as underestimated theraphosids of medical importance Fuchs Joan von Dachend Margot, Rafaella ,Ceschi, TOXICON 2014 [73-77-b]

2. Foelix, R. F. (2011). "Biology of Spiders," Oxford University Press, 2nd Edition. [23-27-b]

3. McD Fisher, G.A Carr, R. McGuinness J.C. Warden Anaesthesia and intensive Care 1980 [410-420-b]

4. Poisonous spider bites: Newer development in our knowledge of Arachnidism Emil Bogen . Annals of internal medicine 1932 [375-388-b]

5. Poisonous spiders: bites, symptoms and treatment; an educational review. Farzad Rahmani, Seyed Mahdi, Banan Khojashet. Emergency 2014 [54-b]

6. Predation on a Brazilian pigmy gecko, *Chatogekko amazonicus* by a wolf-spider, *Lycosa* sp. Vinicius A.M.B. de Figueiredo, Kurazo M. Okada Aguiar, Rodrigo Tavares-Pinheiro. Nota Científica 2020 [181-183-b]
7. The world spider catalog mark s Harvey 2002 [45-56-b]
8. Umurtqasizlar zoologiyasi. O. Mvlonov, SH. Xuramov, Z. Norboyev [305-322-b]
9. Venomous arthropods in Missouri. Curtis W. Wingo 1960. University of Missouri Agricultural Experiment Station [78-90-b]